

TA'LIMDA XULQI OG'IR BOLALAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Nazarova Fazila Shamsidinovna
Qashqadaryo viloyati Koson
tumani 6-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida xulqi og'ir bolalar bilan ishlashning psixologik usullari, ularning xulq-atvorida kuzatiladigan muammolarning kelib chiqish sabablari hamda korreksion va profilaktik ishlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligining samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: xulqi og'ir bolalar, deviant xulq, psixologik yordam, psixokorreksiya, tarbiya, maktab psixologi, profilaktika, motivatsiya, moslashuv, ijtimoiy muhit.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida xulqi og'ir bolalar bilan ishlash dolzarb pedagogik va psixologik masalalardan biri hisoblanadi. Xulqi og'ir bolalar deganda jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlardan chetga chiqadigan, intizom qoidalariga rioya qilishda qiyinchiliklarga duch keladigan hamda tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarda muammolar kuzatiladigan bolalar tushuniladi. Bunday holatlar bolaning shaxsiy rivojlanishi va ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulq-atvordagi muammolarning kelib chiqishiga turli omillar sabab bo'ladi. Oiladagi nosog'lom psixologik muhit, ota-onalar nazoratining yetishmasligi, oilaviy nizolar, tengdoshlarning salbiy ta'siri, emotsional ehtiyojlarning qondirilmashligi hamda ijtimoiy muammolar shular jumlasidandir. Ayrim hollarda bolalarning yosh va individual psixologik xususiyatlari ham xulq-atvoridagi qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Xulqi og'ir bolalar bilan ishlashda eng avvalo ularning xatti-harakatlari sabablarini aniqlash muhimdir. Psixologik diagnostika, kuzatish, suhbat va anketa metodlari yordamida bolaning ichki kechinmalari, ehtiyojlari va muammolari o'rganiladi. Muammoning asl sababini aniqlash korreksion ishlarni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi.

Psixologik suhbat usuli xulqi og'ir bolalar bilan ishlashning samarali vositalaridan biridir. Samimiy va ishonchli muloqot orqali bolaning his-tuyg'ularini tushunish, unga o'z muammolarini erkin ifoda etish imkoniyatini yaratish mumkin. Bu esa bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va salbiy xatti-harakatlarni

kamaytirishga xizmat qiladi. Psixologik treninglar va rivojlantiruvchi mashg'ulotlar ham muhim ahamiyatga ega. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, hissiyotlarni boshqarish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish va o'zini nazorat qilishga qaratilgan treninglar bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Guruhiy mashg'ulotlar esa jamoada ishlash va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Rag'batlantirish va ijobiy mustahkamlash usullari ham samarali natija beradi. Bolaning ijobiy xatti-harakatlarini e'tirof etish, uni qo'llab-quvvatlash va muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish orqali unda o'zini namoyon qilishga bo'lgan ehtiyoj ijobiy yo'nalishga buriladi. Jazolashdan ko'ra ijobiy motivatsiyadan foydalanish ko'proq samara beradi. Xulqi og'ir bolalar bilan ishlashda oila va maktab hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar va pedagoglarning birgalikdagi harakati bolaga nisbatan yagona tarbiyaviy yondashuvni shakllantiradi. Ota-onalarga psixologik-pedagogik tavsiyalar berish ham korreksion ishlarning muhim qismi hisoblanadi.

Maktab psixologining faoliyati bunday bolalarning ruhiy holatini barqarorlashtirish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Psixoprofilaktik tadbirlar, individual maslahatlar va korreksion dasturlar orqali xulq-atvordagi salbiy holatlarning oldi olinadi hamda bolaning ijobiy sifatleri rivojlantiriladi.

Olimlarning fikricha bolada mavjud noto'g'ri salbiy o'zgarishlarni ruhiy rivojlanishning me'yor darajasiga yetkazish orqali tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yo'qotishga erishish mumkin. Shunday ekan, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inson tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch – ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Ma'lumki odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatleri nasliy yo'l bilan berilmaydi deb izoh beriladi. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, real hayotda ko'pincha insonning xarakter xususiyatidagi salbiy og'ishlar uning nasliy tarkibi bilan bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz.

Boladagi salbiy illatlarni oldini olishda va bartaraf etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

Har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim;

Bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak;

“Tarbiyasi og’ir” bolalarning psixologik rivojlanishini me’yorlashtirishga yo’naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Shunga amal qilgan holda: Maktab hududida ko’cha-ko’ya, o’qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Bolaga bo’sh vaqtdan unimli foydalanish yo’llarini o’rgatib borish va uni nazorat qilish;

Ijtimoiy foydali mehnat turlaridan unimli foydalanish;

Bolaning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda to’g’araklarga qatnashtirish;

Ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlari, yutuqlari, shu yutuqlarga erishish uchun kurashlari kabilarga e’tibor qaratish;

Barcha darslarda o’sh tarbiyasi og’ir bolani iloji boricha bir daqiqa ham nazardan qoldirmaslik. Ota-onalarni psixologik bilimlardan xabardor bo’lishini ta’minlash; Maktabda o’tkaziladigan turli tadbirlar: har-xil kechalarda, o’z tengdoshlari davrasida, o’rtoqlari orasida unga so’z navbatini berish, ularda faol bo’lishini ta’minlash;

Gazeta, radio, televideniya va jurnallardan to’g’ri foydalanishni o’rgatish;

Rag’batlantirish metodlarini ishlatib ko’rish. Lozim topilganda olgan baholarga yarim ball, bir ball qo’shish, yutuqlarinisinfda, maktabda me’yorida ta’kidlab qo’yish lozim. Agar bola tartibsiz, intizomsiz davraga o’ralashib kirib qolgan bo’lsa, uni tezlik bilan o’sha davradan ajratib olib, so’ng o’sha tarbiyasi og’ir bolani “yaxshi” va “a’lo” baholarga o’qiydigan intizomli o’quvchilarga biriktirib qo’yish kerak.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishgandan buyon jamiyatimizda kelajagimiz bunyodkori bo’lgan yoshlarga nisbatan bo’lgan e’tibor ancha kuchayadi. Ayniqsa xalq ta’limi sohasida jiddiy o’zgarishlar bo’lmoqda. Bugungi kunda o’quvchilar tarbiyasidagi ijobiy o’zgarishlarni har damda sezish mumkin. O’zbekistonni butun jahon tan olayotgan bir paytda yosh avlodni to’g’ri tarbiyalash muhim omillardan biri bo’lib hisoblanmoqda. “Kelajakka qanday yoshlar kerak? Ularni qanday tarbiyalash lozim?” degan savollar hozirgi kunda har bir jonkuyar pedagogni tashvishga solib kelmoqda. Bola maktab ostonasiga qadam qo’ygunga qadar oiladagi olti, yetti yillik hayoti mobaynida oila birinchi darajali tarbiyachi ekanligini ham nazarda tutish lozim. Bolalar narsa va hodisalarning mohiyatiga o’zlaricha baho beradilar. Ular ezgulik mezonini intilishlari mo’ljalini dastavval ota-onalari hayoti tarziga qarab belgilaydi. Yaxshi tarbiya berib yaxshi kishilarni kamol totirgan oilalardagi sofdillik, samimiylik, bir-biriga hurmat, bolalarda ham shu fazilatlarini kamol topishiga sabab bo’ladi. Ahil oilada bolaning xulq-atvori me’yorlari to’g’risidagi tasavvuri ota-onalarning hulqi bilan uyg’un bo’lsa farzandlarini oqilona so’rab – tergap tursalar bu uydan tarbiyasiz bola chiqishi mumkin emas. Harqalay haqiqat, mehr-oqibat, adolat tushunchalari, ichi qoralik, loqaydlik, ma’naviy zaiflik, insoniy munosabatlardagi qashoqlik, ahloqiy nopoklik hukm surgan oilalarda o’sgan bolalarning tarbiyasi ko’pincha izdan chiqadi.

Bola yaxshilik va yomonlikka, haq va nohaqlikka nisbatan juda sezgir bo'ladi. Agar katta yoshdagi odam nohaqlikka xato deb tushinish mumkin bo'lsa, bola hayotning barcha murakkabliklarini hali tushinmaydi.

Afsuski, katta yoshdagilarning hammasi ham bolani ruhiy kechinmalari to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lmaydi. Ruhiy holat insonning biron – bir tarzda ta'sir etuvchi xatti-harakatlariga berilgan chuqur shaxsiy emotsional bahodir.

Bolaga nohaqlik qattiq ta'sir qiladi. Bola qo'pol baqiriqda ham, mazax qilishda ham, yo'l-yo'lakay aytilgan tanbehda ham, kattalarning bolaga e'tiborsizligida ham nohaqlik ko'radi. Nohaqlik haqorat bo'lib tuyuladi, uning izzat nafsiga tegadi, g'azabini qo'zg'aydi, uning qalbida aktiv(nafarat) va passiv(g'iybat va ko'ra olmaslik) norozilikning turli tuman formalarini keltirib chiqaradi. Katta yoshdagi odamni yengilgina hayajonlantirgan narsa, bolada katta kulfatning manbai bo'lishi mumkin.

Ota-onaning yengil-yelpi mehnatni oqlab, oson pul toppish yo'llarini bolalar oldida maqtab gapirishlari, otaning o'z hamkorini mazax qilib, maqtanib aytgan gaplari bolaga axloqsizlik darajasini ochib beradi. "Tarbiyasi og'ir" va uzluksiz bo'lsagina ijobiy samara beradi. Odatda tartibsiz, intizomsiz, ishyoqmas, o'qishda qoloq va no'noq o'quvchilar "tarbiyasi og'ir" bola hisoblanadi. Tajribalardan ma'lumki, bolalar xarakter jihatdan xar hil bo'ladilar. Bunday bolalarning ayrimlari anomal xulq-atvorli, ba'zilar sotsial va bir qismi "tarbiyasi og'ir" bo'lishi mumkin. Axloq normalariga, jamiyat talablariga javob bermaydigan xulq-atvorli bolalar asotsial xulq-atvorli bolalar deb ataladi. Anomal xulq atvor va harakat bola miyasining kasalligi bilan bog'liq bo'ladi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar – bular tarbiyada e'tibordan chetda qolgan, o'z xoliga tashlab qo'yilgan bolalardir. Ular qayerdadir, qachonlardir, kimlarningdir tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar, tarbiyalashda ularga individual yondasha bilmaslik oqibatida paydo bo'ladi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar murakkab tushuncha. Ularning har birida "tarbiyasi og'ir" boshqa bolalarga o'xshamagan, o'zigagina xos alohida individual xususiyatidir. O'z sababi, o'z xususiyati, o'zining normadan chetga chiqishi, o'zining tarbiya yo'li bo'ladi.

Boshqacha aytganda, normal ta'lim-tarbiya jarayonida chetda qolgan o'quvchilar, o'rtoqlari bilan normal munosabat o'rnatolmagan, qalb tug'yonlarini oshkor etishning tog'ri usullarini topa bilmagan bolalar "tarbiyasi og'ir" bolalar turiga kiradi. Bunday bolalarni o'z vaqtida payqab, ular bilan yaxshi ish olib borilmasa, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazilmasa, noxush ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lishi mumkin. Demak, "tarbiyasi og'ir" degan ibora o'ta salbiy ma'noni bildirmaydi. U yomon buzilgan, ishonchsiz bola emas. "Tarbiyasi og'ir" bolaga alohida munosabat, e'tibor va individual yondashuv zarur. Har qanday kasalni vaqtida davolagan maqul. E'tiborsiz qoldirilgan mayda-chuyda narsadan katta baxtsizlikka duchor bo'lish ehtimoli tug'iladi. Bolani "tarbiyasi og'ir" holatga olib boruvchi yagona sabab yo'q.

Shuningdek ularni axloqsizlik illatlaridan sog'aytirib, mo'minqobil qilib qo'yadigan yagona shifobaxsh vosita ham yo'q.

Lekin shunisi ham aniq-ki, jamoatchilik nazoratining bo'shlig'i tufayli og'irlashgan noqulay shart-sharoitlar, tarbiya ishlarida yuzakilikka yo'l qo'yish o'smir hayotida salbiy oqibatlariga olib keladi.

Tarbiya inson uchun kurash demakdir. Bolaning qanday bo'lishi – bu shaxsiy ish bo'lmay, balki jamoatchilikni qiziqtirgan muammodir bolani tarbiyalaganda, u qilgan gunohining mohiyatini yaxshi anglamasligi oqibatida nima bilan tugashini hali tasavvur qila bilmasligini hisobga olish ham muhim. U chinakam mard yigit bilan do'st, chin o'rtoq qilishni orzu qiladi. Yanglishib yoki adashib yomonlar ta'siriga tushib qolganda esa unga darhol tog'ri yo'l ko'rsatilsa, har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA

Xulqi og'ir bolalar bilan ishlash murakkab, ammo muhim pedagogik va psixologik jarayondir. Muammolarning asl sabablarini aniqlash, individual yondashuvni qo'llash, psixologik treninglar tashkil etish hamda oila va maktab hamkorligini mustahkamlash orqali bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash mumkin. Bu esa ularning sog'lom shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
3. Davletshin M.G. Psixologiya asoslari. – Toshkent, 2020.
4. Nishonova Z.T. Bolalar va o'smirlar psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. Shoumarov G'.B. Psixologik maslahat asoslari. – Toshkent, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
7. Bandura A. Social Learning Theory. – New York, 1977.